



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|--|
| 1. B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, a'zo; |
| 7. D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, a'zo; |
| 8. G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 9. G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 10. R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, a'zo; |
| 11. Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 12. Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 13. N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 14. M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|---|
| 1. M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, a'zo; |
| 4. F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, a'zo; |
| 6. M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori, a'zo; |
| 7. Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 8. M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 9. G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 10. R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti, a'zo; |
| 11. M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

XORAZMIYNING “MUHABBATNOMA” ASARIDA TASHBEH SAN’ATI

Ibotova Madina Otabek qizi

BuxDPI, o‘qituvchi

Axtamova Dilnoza Dilshod qizi

BuxDPI, 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotida noma janrining yuksak namunasi bo‘lgan Xorazmiyning “Muhabbatnoma” dostonida qo‘llangan tashbeh badiiy san’ati tahlil qilingan. Tahlil jarayonida shoirning tashbeh san’atini qo‘llashdagi mahorati va mazkur san’at orqali badiiy talqin qilingan obraz va tasvirlarga munosabat bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Xorazmiy, “Muhabbatnoma”, ma’shuqa, oshiq, tashbeh, yor, oshiq, ishq.

Xorazmiy o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyondalaridan biridir. Bu iste’dodli ijodkorning hayoti va faoliyati, adabiy meros haqidagi juda oz ma’lumotlar yetib kelgan. Shoirning hozircha bizga ma’lum yagona asari “Muhabbatnoma”dir. Asarning nomidan ham ko‘rinib turibdiki, uing mohiyatini ishq-muhabbat tashkil qiladi. “Muhabbatnoma”dagi ishq-muhabbat dunyoviy mohiyatga ega bo‘lib, u insonning insonga bo‘lgan sevgisini kuylaydi. Bu ishq-muhabbat insonni yashashga, hayotning qadr-qimmatini bilishga chaqiradi.

“Muhabbatnoma” Xorazmiyning dunyoqarashi, badiiy mahorati haqidaga ma’lumot beruvchi yagona manbadir. Asarda juda ko‘p badiiy san’atlar qo‘llanganki, shoir ularni mahorat bilan qo‘llagan. “Muhabbatnoma”da ko‘p qo‘llangan badiiy san’atlardan biri tashbehdir. Bu san’atning ko‘p qo‘lanishining ham o‘ziga xos sabablar bor. Chunki asarda ma’shuqaning surati va siyratining go‘zalligi, nafisligi va betakrorligini ta’sirchan ifodalash, uni o‘quvchi tasavvurida jonliroq gavdalantirishda tashbeh san’ati qo‘l kelgan. Tashbeh orqali muallif ma’shuqaning yuzini oyga, qaddini sarvga qiyoslab, obrazli tasvir yaratgan.

Tashbeh – Sharq adabiyotida keng qo‘llangan san’atlardan biri bo‘lib, unda ikki yoki undan ortiq narsa va hodisa, xususiyatlar o‘rtasida mavjud bo‘lgan o‘xshashliklar solishtiriladi va bu usul orqali mualliflar o‘z his-tuyg‘ularini yanada ijodiy tarzda ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Xorazmiyning qalamida yorning yuzi, bamisoli ochilgan gul, tiniqlikda esa oyning nuriga o‘xshaydi, qaddi-qomati – sarv, osmondagi yulduzlar va sayyoralar bilan tenglashib, ulug‘vorlikni kasb etadi. Yorning labi la’ning qizilligidek. Kipriklari kamonga o‘xshab, uning chiroyini yanada oshiradi. Ko‘zlari shahlo, qovoqlari bodomdek, jozibali.

Xorazmiy “Muhabbatnoma” tarkibida kelgan g‘azallarda ma’shuqaning o‘ziga xos qiyofasini so‘z yordamida mahorat bilan chizadi. Jumlanan,

Yaratqonkim, tan ichra jon yaratti,
Seni ko‘rkluklar uzra xon yarattiyu
Quyosh yanglig‘ yuzungni yorutti,
Falakdek bizni sargardon etti.

Yaratuvchi (Yaratqon) inson tanasiga jon bag‘ishlaydi, ma’shuq esa barcha go‘zalliklarga sulton, ya’ni yuksak darajali zot sifatida yaratildi. Ma’shuqaning yuzi quyoshdek yorug‘ va jozibalidir, shu go‘zallik oshiqni falak kabi sargardon va ovora qilib qo‘ydi.

Ko‘rinib turibdiki, keltirilgan baytda ma’shuqa yuzi quyoshga tashbeh qilingan. Sargardonlik oshiqqa xos bo‘lgan holat. Shoir buni tabiiy jarayon, ya’ni quyoshning falak – osmonda beqaror aylanishi bilan izohlaydi.

To‘lin oy ta’biya sarv uzra qildi,
Meni ul surata hayron yaratti.
Eshitting ersa Yusufning jamolin,
Seni husn ichra sad chandon yaratti.

Dastlabki baytda shoir ma'shuqning jamolini tabiat manzarasi orqali ifodalaydi. "To'lin oy" – ma'shuqning yuzi, "sarv" – uning qad-qomatiga ishora. Baytda yuz – oyga, qomat – sarvga tashbeh qilingan. Ammo muallif shunchaki o'xshatish bilan cheklanmaydi, balki tabiat manzarasini ko'z oldimizga keltiradi: go'yo kecha, oy chiqqan, oy sarv daraxti orqasida yoki ustida ko'ringan. Shoir bu tabiiy manzarani ma'shuqaga qiyos qilib, go'zal tasvir yaratgan.

Ikkinchi baytda shoir tashbehni mubolag'a bilan almashtirgan. Yusuf payg'ambar adabiyotda go'zallik timsoli. Shoir go'zallik darajasini Yusuf misolida qiyoslar ekan, "sening husning undan "sad chandon", ya'ni yuz karra go'zal yaratilgan" deb ma'shuqani ta'riflaydi.

Xorazmiy faqat ma'shuqaning zohiriy go'zalligini targ'ib qilish bilan cheklanmaydi, balki go'zallik – Yaratuvchining sifatlaridan biri ekanligini, ma'shuqa – ilohiy jamolning zohir bo'lgan surati ekanligiga ham urg'u beradi.

Yorning husn-jamoli olamga quyoshdek nur taratadi:

Agar kun tug'masa ham yoqtu qilgay,

Yuzing nuri bu dunyoning saroyin.

Shunga ko'ra, quyosh xijolat bo'lib, butun tun betiga chodir tortib oladi:

Zi sharmi ro'i tu xurshidi xovar,

Kashad dar sar zi shab to subh chodar.

Bihisht lolazorning qizilligi ham yorning qizil chehrasi tufaylidir:

Bihishti lolazor az g'ozai tust,

Jahon andar, jahon ovoza tust.

Yor Masihdek bemorlarga shifo, o'liklarga jon bag'ishlaydi. Shoir Masihning "qudrati" va "mo'jizakor"ligini zaminiy insonga ko'chiradi:

Qamuq ko'rluklar uzra podshosen,

Masih anfosliq, Yusufliqosen.

Shoir baytma-bayt yor tasvirini kuchaytirib boradi. Ma'shuqa shunchalik ko'rkam va dilbarki, uni ko'rgan tarso (butparast), hatto sanam (but)idan ham voz kechadi. Shoir bu bilan qanoatlanmay "sendek inson hali vujudga kelmagan", deydi.

Xorazmiy asarda o'zining didaktik qarashlarining ifodasida ham tashbeh san'atidan mahorat bilan foydalanadi. Quyidagi baytda Xorazmiy hayotiy tajribalar asosida didaktik xulosa chiqaradi:

Ayol nomehribon ahdi baqosiz

Jahon eltek, umr gultek vafosiz.

Umrni gulga qiyos qilish mumtoz adabiyotda keng tarqalgan tashbehlardan biri sanaladi. Gul – go'zallik ramzi, shu bilan birga fano ramzi. Inson tabiati yel (shamol) kabi o'zgaruvchan, dunyo ham shunday. Demak, baytda inson hayotning o'tkinchiligi, umrning bebaqoligigi haqida fikr yuritilgan. Gulning umri qisqa, hayot ham shunday. Shoir hayotning yel, umrning guldek tez o'tishini tashbehlantirar ekan, nomehribon ma'shuqadan vafo kutadi.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, "Muhabbatnoma" tarkibidagi noma va g'azallarda ma'shuqaning husn-u jamoli orginal tasvirlar orqali badiiy talqin qilingan. Shoir ma'shuqaning go'zalligini tasvirlashda tashbehdan foydalanar ekan, nafaqat uning tashqi ko'rinishni, balki uning ichki go'zalligiga ham urg'u beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.: O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2008.
2. Jamolova M. O'zbek adabiyotida noma janri. T.: Fan. 1992.
3. Xorazmiy. Muhabbatnoma. Kitobda: Navoiyning nigohi tushgan. G'G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, – T.: 1986. 41-66 betlar.